

Tadqiqot uz

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР

## МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

» Ҳуқуқий тадқиқотлар
» Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
» Тарих саҳифаларидаги изланишлар
» Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
» Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
» Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
» Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
» Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
» Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
» Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
» Физика-математика фанлари ютуқлари
» Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
» Кимё фанлари ютуқлари
» Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
» Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
» Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

doi

Crossref

№23
25 декабрь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ**

**14-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ 23-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"**

**ЧАСТЬ-14**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN 23-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL RESEARCH IN UZBEKISTAN"**

**PART-14**

**ТОШКЕНТ-2020**

**УУК 001 (062)**
**КБК 72я43**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 23-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**
Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**
Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидаги изланишлар**
Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**
Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**
PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

**6.Журналистика**
Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**
Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**8.Адабиёт**
PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**
Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**
Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**
Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**
Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**
Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**
Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**
Доцент Сохадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**
Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**
Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**
Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**
Phd доцент Қаххоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

***Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.***

**© Муаллифлар жамоаси**
**© Tadqiqot.uz**

**PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

## ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

**1. Bekbayeva Rayhon Rashidovna**
MAKTABDA CHIZMACHILIK O'QITISHDA GUMANITAR, POLITEXNIK, IJODIY VA UMUMMADANIY YO'NALISHLARNI AMALGA OSHIRISHNING METODIK USULLARI.................................................................. 7
**2. Sirochova Zebiniso**
SHAXSNING BADIIY MADANIYATI VA MA'NAVIYATINI RIVOJLANISHIDA TASVIRIY SAN'ATNING O'RNI ................................................................9

# ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

## MAKTABDA CHIZMACHILIK O'QITISHDA GUMANITAR, POLITEXNIK, IJODIY VA UMUMMADANIY YO'NALISHLARNI AMALGA OSHIRISHNING METODIK USULLARI

***Bekbayeva Rayhon Rashidovna***
***Xorazm viloyat Urganch tumanidagi 5-umumiy o'rta ta'lim maktab***
***Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi***

**Annotatsiya.** Grafika fanlari o'quvchilarning politexnik ta'limida kuchli vosita hisoblanadi. Chizmalarni o'z qo'li bilan yuqori sifatli bajarishga hamma o'quvchini o'rgatish mumkin, bu ularda go'zallik tuyg'ularini uyg'otib, o'z ishidan qoniqish hissini hosil qiladi. O'z qo'li bilan sifatli chizmalar bajarish o'quvchilarda ozodalik, mehnatsevarlik, intizomlilik va tartiblilik xususiyatlarini rivojlantiradi.

**Kalit so'zlar.** Grafika, chizmalar, arxitektor, konstruktor, tamoyillar, doirasida Arximed, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Leonardo da Vinchi, G.Monj, Le Korbyuze, N.A.Tupolev, S.P.Korolev, N.F.Chetveruxin.

Chizmachilik o'qituvchisi ba'zan chizmachilik darslarida imkoniyat bo'igan hollarda, grafika Yo'nalishidagi to'garak mashg'ulotlarida va turli xil o'quv sayohatlari paytida o'quvchilarga grafika kursi bo'limlarining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq qiziqarli ma'lumotlarni berib borishga harakat qilishi kerak. Bunda shu sohada faoliyat ko'rsatgan konstruktor, arxitektor, dizayner va rassomlarning hayoti, turli konstruksiyalarni loyihalash bilan bog'liq qiziqarli voqealar o'qituvchiga darsni qiziqarli hamda o'quvchilarning xotirasida uzoq saqlanib qoladigan shaklda tashkil qilishga yordamlashadi. Grafika tarixi va rivojlanishiga bunday qisqa «sayohat»lar bir vaqtning o'zida muhandislik grafikasini o'qitishning gumanitar yo 'nalishi hisoblanadi. Gumanitar yo'nalishni amalga oshirishga misollar keltiramiz: I. 8-sinfda chizmachilikdan kirish darsida o'quvchilarga grafika tarixi bilan birgalikda, O' zbekiston hududida grafikaning shakllanishi va rivojlanishini qoyatoshlarda saqlangan ibtidoiy odamlar tomonidan chizilgan tasvirlar va ularning shu davr qabilalarining turmush tarzinio'rganishdagi ahamiyati, o'zbek xalq amaliy san'ati va me'morchiligida shakllangan O'ziga xos nafis grafik tasvirlar va mahsulot shakllarini turli namunalar hamda ulaming tasvirlarini namoyish qilish orqali ham tushuntirish kerak. 2. Arximed o'zi alohida faxrlanib yurgan chizmasini uning qabrtoshiga o'yib tasvirlashlarini vasiyat qilgan. Bu shar sirtiga chizilgan silindming chizmasi bo'lgan. Uning yordamida Arximed shar hajmi va sirtining yuzasi haqidagi teoremani isbot qilgan... Arximed qabriga unchalik katta bo'lmagan tosh kolonna o'rnatilib, unga shar va silindming chizmalari o'yib tasvirlangan. Chizmachilikdan birinchi darsdan boshlab o'qituvchi tomonidan hali o'quvchilarga notanish bo'lgan ko'plab termin (atama)lar ishlatilib boshlanadi. Bu hol ayrim o'quvchilarga birdaniga eslab qolishlari uchun qiyinchilik tug'dirib, ularda fanni o'zlashtirishlariga ishonchsizlik hosil qilishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchiga dastlab o'quvchilar uchun qiyin yoki tushunarsiz bo'lgan terminlar bilan tanishtirishda shu terminlami birmuncha boshqacharoq (lekin mazmun jihatidan to'g'ri) ko'rinishda qo'llashni tavsiya qilamiz. Masalan, «Proyeksiyalash usullari» mavzusini o'rganishda doskada oldin ikkita - «proyeksiya» va «oldinga otish» so'zlarini yozib, mavzuni tushuntirishni boshlash mumkin. O'quvchilarga imkoniyat doirasida Arximed, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Leonardo da Vinchi, G.Monj, Le Korbyuze, N.A.Tupolev, S.P.Korolev, N.F.Chetveruxin kabi ko'plab ajoyib allomalar, rassomlar, muhandislar, konstruktorlar va arxitektorlarning hayotidan eng yorqin va qiziqarli voqealami so'zlab berishga harakat qilish kerak. Ta'lim jarayonida politexnik tamoyillarni amalga oshirilishi umumta'lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. «Politexnik» so'zi texnikaning turli sohalariga tegishli ma'nosini anglatadi. Umumiy ta'lim bilan birgalikda politexnik ta'lim o'quvchilami faol ishlab

chiqarish va ijtimoiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi. Bu hol chizmachilik o'qituvchisining vazifasini murakkablashtiradi. Chizmachilik o'qituvchisidan hamma fanlar bo'yicha mutaxassis bo'lishni va ishlab chiqarishning hamma sohalarini chuqur bilishni talab qilish ham mumkin emas. Lekin chizmachilik o'qituvchisining yetarlicha keng politexnik dunyoqarashi, ishlab chiqarishning ko'pchilik sohalarida bo'layotgan jarayonlaming mohiyatini tushunishi uning kasbiy faoliyatida qo'l keladi. Agar o'qituvchi o'zining politexnik va umummadaniy saviyasini orttirish uchun doimiy shug'ullanib, maxsus adabiyotlami o'qib, ilmiy-ommabop filmlar va teleko'rsatuvlarni ko'rib borish orqali bilimlarini boyitib borsa uning o'quvchilari ko'z o'ngida obro'si, hamda mashg'ulotlarining samaradorligi o'sib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ro'ziyev E. I. Chizmachilik o'qitish metodikasi. - Urganch: UrDU, 2001.
2. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. 4-maxsus son «Chizmachilik». - T.: 1999.
3. www.ziyouz.com

# SHAXSNING BADIIY MADANIYATI VA MA'NAVIYATINI RIVOJLANISHIDA TASVIRIY SAN'ATNING O'RNI

***Sirochova Zebiniso***
***Navoiy viloyati Qiziltepa tumani***
***15 umumiy o'rta ta'lim maktabi***
***tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi***

Insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi san'atdir. U musiqa, teatr, kino, badiiy adabiyot, xoreografiya, tasviriy va amaliy bezak san'ati kabi boshqa turlarini o'z ichiga oladi. San'atning har bir turi o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni aks ettirishda har xil vositalardan foydalanadi, masalan, adabiyot - so'zdan, musiqa - tovushlardan, tasviriy san'at - rang va chiziqlardan va hokazo. Shu bilan birga, har bir san'at turi o'z ichida yana xillarga va janrlarga bo'linadi.

San'atni tushunish, uning kishilar hayotidagi rolini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida keskin bahs, tortishuvlarga sabab bo'lib kelgan. San'atning eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri – tasviriy san'atdir. Odatda real borliqni badiiy obrazlarda, mavjud predmetlami tabiiy shaklini o'ziga o'xshatib umumlashtirib ifodalaydi hamda predmetlaming hajmi, o'zaro fazoviy joylashuvini va hokazolarda aks ettiradi.

San'atkor o'z asarida voqea, hodisa, holatning ma'lum bir zumdagi ko'rinishini ifodalab, u tasvir orqali rivojini, mohiyatini ochib berishga intiladi, kishilaming ma'naviy qiyofasi, psixologik holati va boshqa fikrlarni ilgari suradi va tasawur qiladi. Rassom biror shaxsni rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat o'ziga o'xshatishga ishtilish bilan chegaralanmaydi. Rassom shu ishlayotgan tasvir orqali avvalo o'zining fikr va tuyg'ularini tomoshabinga yetkazishga harakat qiladi. Ishlamoqchi boMgan tasvirida avvalom bor g'oyasiga mos mavzu, syujet tanlaydi, voqea kompozitsiyasini quradi, shu yo'lda izlanadi, dastlab hayotni o'rganib, naturani kuzatib, eskizlar chizadi, etyudlar yaratadi. Rassomlik san'atida predmetlaming shakli, hajmi, rangi, ulaming o'zaro muvozanatini to'g'ri ko'rsatishda rasmni aniq va to'g'ri ishlashning juda muhim ahamiyati bor.

San'atkor o'z asarida real borliqda uchraydigan, balki inson fantaziyasi mahsuloti bo'lgan voqea va predmetlar ham aks ettirilishi, hayotda mavjud bo'lgan hodisalarning ayrim jihatlari o'zgartilib. bo'rttirib ko'rsatishi ham mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, tasviriy san'at asarlari - insondagi ajoyib fazilat - borliqni bilish, uni o'rganish va sirlarini ochishga bo'lgan ehtiyojlami qondirishga ta'sir ko'rsatadi.

Tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg'otadigan, kishini ruhlantirib, ma'naviy olamini boyitadigan san'at turiaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishiga va kamolatiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir. Ma'lumki, bugungi o'quvchi kelajakda ishchi, xizmatchi, dizayn- konstmktor, muhandis, shifokor, o'qituvchi, yurist yoki Harbiy mutaxassis yoki biron bir sohani yaratuvchisi bo'ladilar. Ulami har biri uchun rasm chizish, undan foydalanish lozim bo'ladi. Hatto uy bekasi ham rasmni ko'ra olishi, tushunishi, bu zamonning eng zarur faoliyatidir. Hozirgi davrda har bir erkak zoti mashina haydashni, texnika bilan shug'ullanishiga, uy bekalarini esa dazmol, tikuv mashinasi, radio, televizor, kir yuvish mashinalari, muzlatgich, elektrplita, sut, qaymoq olish mashinalari kabi yuzlab texnik buyumlar bilan shug'ullanadilar. Ularga bu asbob-texnika vositalarini ishlatish va ularni sozlash ucliun grafik bilim va malakalar darkor. Shu boisdan har bir kishi rasm chizishni, grafik tasvirlarini bilishi maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda har bir shaxsni grafik bilimga ega bo'lishi uning o'ziga ham, jamiyatga ham suvdek zarur. Shunga ko'ra fransuz faylasufi Didro, bundan qariyb 300 yillar avvaldanoq, - «Qaysi bir mamlakatda rasm chizislini o'qish-yozish kabi bilsalar edi, bu mamlakat barcha sohalarda har qanday mamlakatni quvib yetadi va oitda qoldiradi» - degan edi[1].

[1] Sitata N.Rostotsevning «Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi» kitobidan olindi. M., I980-y. 12-bet.

Tarix shohidkim, jahonga mashhur geograflar, tarixchi, adabiyotchi, shoir, yozuvchilar, konstruktor va boshqa soha allomalari rasm chizishni juda yaxshi bilganlar. Shunga ko‘ra Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Gyote, Gyugo, Anderson, Pushkin, Tagor, Mikluxo-Maklay, Mendeleev, B.Zokirov kabi turli soha ijodkorlari rasm chizish bilan jiddiy shug‘ullanib kelganlar.

Agar har bir o‘qituvchi rasm chizishni bilganda edi, ular dars berishda yuksak samaralarga erishardi, dars mashg’ulotlarini o’zlashtirish ham o‘quvchi uchun juda oson va yengil boMardi, hattoo‘zlashtirmovchi o‘quvchini boiishi ancha qiyin boiardi. Shularga ko‘ra bugungi maktab o‘quvchilariga badiiy bilim va malaka berishga katta e’tibor berilmoqda.

Xullas, har bir sohani ijodkori uchun rasm chizishni bilish unga katta ijodiy imkoniyat va ozuqa beradi.

# "ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

## (14-қисм)

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2020

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000